

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI



**PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
YO'NALISHLARDA  
YOSH TADQIQOTCHILARNING O'RNI**

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi*

*(2026-yil 10-fevral)*



**Toshkent – 2026**

## TAHRIR HAY’ATI

1. **M.A.NASIROVA** – filologiya fanlari nomzodi, professor (mas’ul muharrir).
2. **T.M.ISAQULOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
3. **Sh.G‘.KARIMOVA** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
4. **J.B.MAMADIYOROV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
5. **U.B.MAMANAZAROV** – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
6. **Y.B.MAXMUDOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

# O'QUVCHILARIGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA SHARQ MUTAFFAKIRLARI MANBALARIDAN FOYDALANISH

**Mirsagatova Nargiza Sayfullaeyvna**

Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

**Movlonova Munira Baxtiyor qizi**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sharq olamining buyuk ilm sohiblari, falsafiy va ijtimoiy yo'nalishlarda ijod qilgan mutaffakirlari Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab allomalarning o'z asarlarida ta'lim tarbiyaga qanday yondashganlari haqida tahlil qilinadi. Maqolada Sharq mutaffakirlarining ta'limga oid fikrlarini tahlil qilib, bugungi kunda yosh o'sib kelayotgan avlodning ongiga singdirish va tarbiya usullar vositalarini o'rganish hayotda ulardan to'g'ri foydalanishni o'rgatishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** barkamol avlod, inson, shaxs, ta'lim, tarbiya, pedagogic fikr.

**Annotation:** This article analyzes the approaches to education and upbringing reflected in the works of great scholars of the Eastern world, philosophers, and thinkers who contributed to social and intellectual thought, such as Imam al-Bukhari, Abu Nasr Farabi, Alisher Navoi, and many other eminent scholars. The article examines the educational ideas of Eastern thinkers and aims to study methods and tools of upbringing, instill these ideas into the consciousness of the younger generation today, and teach how to apply them correctly in real life.

**Keywords:** harmonious generation, human, personality, education, upbringing, pedagogical thought.

**Аннотация:** В данной статье анализируются подходы к обучению и воспитанию, отражённые в трудах великих учёных Востока, философов и мыслителей, творивших в философском и социальном направлениях, таких как Имам аль-Бухари, Абу Наср Фараби, Алишер Навои и многих других выдающихся учёных. В статье рассматриваются педагогические взгляды восточных мыслителей, изучаются методы и средства воспитания, а также вопросы внедрения этих идей в сознание подрастающего поколения и их правильного применения в современной жизни.

**Ключевые слова:** гармонично развитое поколение, человек, личность, образование, воспитание, педагогическая мысль.

Butun insoniyat kabi jahondagi har bir xalq va millat ham o'zining taraqqiyot tongiga qarab intiladi ya'ni rivojlanishga yuksalishga harakat qiladi. Bunda har bir xalq

yetaklaydi. Alloma yozadiki, oziq-ovqat bilan inson yashaydi, avlod qoldiradi; kiyim-kechak kishini zarardan saqlaydi, issiq-sovuqda unga kerak bo'ladi, makon unga joy bo'ladi, zarardan asraydi. Oltin va kumush esa bunday xususiyatlarga ega emas. Ular - har ikkalasi ham tosh, odamni na to'ydira, na chanqog'ini bosar; na zo'ravonlikdan qutqara, na yomonlikdan saqlay oladilar. Ular faqat insonga zarur bo'lgan narsalarni sotib olmoqda kerakliklari uchungina maqtaladilar ("Mineralogiya", 13-b.). Beruniy ikkiyuzlamachilik, tuhmat, yolg'onchilikni, omonatga hiyonat qilish, boshqalar mulkini xiyla bilan egallash, xudbinlik bular hammasi yomon xulq ekanligini aytib, bu yomon xulqlar insonni barcha narsalardan mahrum etadi, degan g'oyani ilgari suradi. Shu bilan birga barchani eng yaxshi xulq egalari bo'lishga chorlaydi<sup>38</sup>.

Biz ham yosh avlodga hadis ilmi haqida malumotlar berishimiz dars jarayonlarida hadislardan misollar keltirishimiz kerak va ularni izohlab berishimiz kerak. Buhoriy ham kichik yoshdan boshlab hadis yod olgan ilmga umrini bagishlagani uchun hozir biz bu inson haqida gapirib asarlarini o'rganib o'tirimiz. Yosh kelajak avlodga ham ilmni ertaroq boshlashni ustozlardan bilimni chuqurroq o'rganishni uqtirishimi va kelajakda yaxshi natijalarga erishi yuksak marralarni qo'lga kiritishlari mumkinligini uqtirishimiz kerak.

Falsafiy fikrlarning rivojlanishida o'zining yetakchi o'rniga ega Abu Nasr Forobiy o'zidan keyin avlodga boy meros qoldirgan. Forobiy "Aql ma'nolari xaqida" risolasida aql muammosini chuqur taxlil qilib bu haqda aql, bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan tashqi ta'sir, ya'ni ta'lim-tarbiyaning natijasi deydi. Uning fikricha, aql faqat insongagina xos bo'lgan ruhiy kuch bilan bog'liq qobilyat insonni hayvondan ajratuvch asosiy omildir.<sup>39</sup> Ko'rinib turibdiki aql faqat insonga berilganini va u orqali insonlar bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari mumkinligi haqida o'zining sozlari bilan yoritgan. Muttafakirning fikricha fozil jamoadagina komil inson xislatlari kamol topadi. Bunda fozil jamoa degannda yaxshi insonlar tog'ri so'z, adolatli, mehnatsevar va biron bir kishi yordamga muhtoj bo'lganda unga yordam berish kabi hislatlar tushuniladi. Biz ham kelajakda o'quvchilarimizni shunday jamoa qilib yetishtirishimiz, sog'lom raqobatni shakllantirishimiz kerak.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida inson ma'naviyatining qanoat, sabr, ta'zim-tavoze, himmat, vafo, ezgulik, kamtarlik, har ikki nafsni tiya bilish kabi qirralari g'oyatda ibratli, ta'sirchan tarzda tasvirlangan. Masalan, asarning ikkinchi qismi, to'rtinchi "Qanoat zikrida" shunday satrlarni uchratamiz: "... Qanoat

millat o'zining boy tarixini o'rganishga o'tmishda yashab ijod qilgan allomalarni bilishga ularni ijodiy yo'nalishlarini o'rganishga harakat qiladilar.

Bugungi kunda davlatimiz va yoshlar siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma'daniy sohalarda katta yutuq va natijalarga erishib kelmoqda. O'z tariximizga yangicha tafakkur asosida yondashish ulug' ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy marifiy merosini o'rganish imkoniyati tug'ildi, milliy g'ururimiz yana qayta tiklandi, ilm-fan, jumladan pedagogika fani ham rivojlanib yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda. Tariximizda yashab ijod qilgan pedagogik tafakkur daholarini shuhratini tiklash ularning ilm-fan yo'lidagi g'oyalarini hayotga tadbiiq etish bugun bizning maqsad va vazifamizdir. Qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni hayoli iymon-e'tiqodli yetuk shaxs qilib tarbiyalashga alohida katta e'tibor qaratganlar. Kelajak yoshlarimiz qo'lida degan g'oyalarini ilgari surishgan.

Eng avvalo ular ham ilm-fan va ta'limga katta e'tibor qaratmoqdalar bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida "Alloma bobomiz hazrat Alisher Navoiy ham o'z zamonasining nidosi va da'vatini ifoda etgan holda "Emas oson bu maydon ichra turmoq..." deb boshlanadigan misralarni bejiz bitmagan. Bugun ham xuddi shunday dunyo maydonida va o'z azm-u qarorida qoyim turmoq, maqsadga erishmoq uchun muttasil oldinga intilish, hayot va tafakkur tarzini isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish lozim"<sup>37</sup>.

Biz yosh avlodimizni barkamol yetuk shaxs qilib tarbiyalashimizda ularga o'tmishda yashab ijod qilgan allomalarni tanishtiribgina qolmasdan ular qanday mashaqatli yo'lni bosib o'tganliklari haqida ma'lumotlar berishimiz kerak. Dars jarayonlarida ularning yozgan asarlaridan parchalar she'rlar hamda qilgan buyuk ishlarini aytib izohlab o'tishimiz kerak. Tarixni yaxshi bilgan yoshlar o'zi tug'ilib o'sgan zaminda qanday olimlar yetishib chiqqanini bilsa kellajakka boshqacha nigoh bilan boqadi ya'ni men tug'ilib o'sgan zaminda qanchadan-qancha olimlar bor men ularning avlodidanman degan faxr tuygusi kuchli boladi.

**Abu Rayhon Beruniy**ning "Mineralogiya" kitobida yozilishicha: "Men ko'p nozik-nihol raqqosalarning latif raqslarini tomosha qildim. Go'zal parichehra soqiylar qo'lidan rohatlandim. Ammo hech bir totganim lazzatlar, mendan yaxshilik ko'rgan kishilarning minnatdorlik bilan boqishlaridan topgan farog'atimga barobar bo'la olmaydi". Demak, kishi eng yuksak lazzatni o'zgalarga yaxshilik qilganida oladi. Chin insoniy rohat ham shu bo'lsa kerak, deb insonlarni savob amallarni bajarishga da'vat etadi. Mehnat – inson ma'naviy-axloqiy kamoloti asosi bo'lib, u insonni maqsad sari

chashmaedurkim, suvi olmoq bila qurimas va maxzanedurkim, naqdi sepamoq bila o'ksumas va mazraedurkim, shoxi istig'no va shavkat bar berur va shajaredurkim, shoxi istig'no va hurmat samar kelturur"2. Navoiy qanoatni bir chashmaga qiyoslab, uning suvini olgan bilan chashma tugab qolmasligini, qanoat bir bitmas xazinadirki, sochgan bilan kamaymasligini, keng ekinzorki urug'i izzat va shavkat mevasi berishini, o'zini tiya bilish fazilatini esa elning nazarida hurmat mevasini beruvchi daraxt shoxiga qiyoslaydi va bundan ibrat olishga da'vat etadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutaffakirlarning pedagogik merosi boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda muhim manba hisoblandi. Ularning asarlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish bolalarda ma'naviy yetuklik, axloqiy poklik va ilmga muhabbatni kuchaytiradi. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida Sharq mutafakkirlari g'oyalarini keng joriy etish dolzarb vazifalardan biridir. Biz ham kelajak avlodni tarbiyalab bilim berar ekanmiz Sharq allomalarning manbalarida samarali foydalanishimiz kelajak avlodga tariximizning naqadar uzoq yillarga borib taqalishini yetkazib berishimiz kerak deb o'ylaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. SH. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T-2022.
2. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб Асарлар. 15 томлик. т. 13 том Т., Ғофур Ғулом номидаги бидий адабиёт нашриёти, 1966. Б-36.
3. Ubaydulla Uvatov. Buyuk yurt allomalari. T-2020.
4. R. Temirov. Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur. T-“Musiqa” 2019.
5. Мирсагатова N. talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish (o'quv-uslubiy qo'llanma) 2023-yil.

49. **Mirsagatova Nargiza**  
**Sayfullayevna,**  
**Movlonova Munira Baxtiyor**  
**qizi** O'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda  
sharq mutafakkirlari manbalaridan  
foydalanish... ..... **217**